



# Qurilish ishlari

## 2018 yil yanvar-avgust oylari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 395,7 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 2,5 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 18,4 mlrd.so'mni yoki 89,2 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 foiz punktga pasaygan.


Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 0,9 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 20,7 foizni, mos ravishda, Oqoltin tumanida – 2,4 mlrd.so'm yoki 147,9 foizni, Mirzaobod tumanida – 4,0 mlrd.so'm yoki 74,5 foizni tashkil etdi.

### RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **395,7**
  - mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi **-4,7 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar **-74,0 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi-**21,3 foiz**


### Qurilish ishlari

(mlrd.so'm)



■ Yanvar-avgust 2017 ■ Yanvar-avgust 2018


**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati  
2018 yil yanvar-avgust uchun**



**2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	395,7	102,5
Guliston sh	130,3	116,4
Shirin sh	22,0	109,7
Yangier sh	34,6	96,7
Boyovut	30,8	103,5
Guliston	22,7	92,4
Mirzaobod	35,0	99,1
Oqoltin	26,9	113,6
Sardoba	12,0	105,4
Sayxunobod	14,3	105,9
Sirdaryo	42,7	100,0
Xovos	24,4	65,2


**2018 yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari  
umumiy hajmida hududlarning ulushi  
(umumiy hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 32,9 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 10,8 % ni, Yangier shahrida bajarilgan qurilish ishlari 8,7 % ni va Mirzaobod tumanida 8,9 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,0 % ni va Sayxunobod tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.

**Yanvar - avgust oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish  
ishlari (mlrd.so'm)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,0% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4% punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,8% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.

#### **2018 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**





#### **2017 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**



## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 370,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 foiz punktiga o'sdi.



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

**G.Muxraximova**  
(0371) 230-86-27